



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRINING
BUYRUG'I**

**Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ayrim ichki lokal hujjatlarni
yangi tahrirda tasdiqlash to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonuni 10-moddasi ijrosini ta'minlash va ichki lokal hujjatlarni "Mavjud manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi xabarnoma, ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyalar va manfaatlar to'qnashuvini hisobga olish reestrining namunaviy shakllari"ga (2024-yil 5-noyabr, ro'yxat raqami 3569) muvofiqlashtirish maqsadida **buyuraman:**

1. Xodimning ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyasi, aloqador shaxslarning ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiya, manfaatlar to'qnashuvini hisobga olish reyestri va mavjud manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi xabarnomaning yangi tahrirdagi shakllari **1-4-ilovalarga** muvofiq tasdiqlansin va ushbu **ilovalar** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'lifi vazirining 2023-yil 27-iyundagi 196-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'lifi vazirligi, uning hududiy va tarkibiy bo'linmalarini hamda tizim tashkilotlarida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risida"gi nizomga **2-5-ilovalar** deb hisoblansin.

2. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'lifi vazirining 2023-yil 27-iyundagi 196-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'lifi vazirligi, uning hududiy va tarkibiy bo'linmalarini hamda tizim tashkilotlarida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risida"gi nizomga 2-5-ilovalar va ushbu Nizomga 2024-yil 31-iyuldagagi 236-sonli buyruq (3-ilova 1-band "v" kichik bandi uchinchi xatboshisi) bilan kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

3. "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonun bilan o'rnatilgan talablar va mexanizmlarni o'z tashkilotida samarali joriy etish, bu jarayonda xodimlarning huquq va manfaatlari himoyasini ta'minlash hamda ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini, shu jumladan mohiyati va ahamiyatini xodimlar o'rtasida tushuntirish ishlarini olib borish, shuningdek, javobgarlik O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'lifi vazirligi markaziy apparati tarkibiy bo'linmalarini, hududiy boshqarmalari, tuman (shahar)lar bo'limlari, maktabgacha va maktab

ta’limi tashkilotlari va muassasalari, shuningdek, tizim tashkilotlari va muassasalarining birinchi rahbarlari zimmasiga yuklansin.

Vazirlikning hududiy boshqarmalari, tuman (shahar)lar bo‘limlari, maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari va muassasalari, shuningdek, tizim tashkilotlari va muassasalarining birinchi rahbarlari o‘z ichki lokal hujjatlarini ushbu buyruqqa muvofiqlashtirsin va buyruqqa zid bo‘lgan hujjatlarini bekor qilinishini ta’minlasin.

4. Axborot xizmati (D.Sobirova) xodimning ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyasi, aloqador shaxslarning ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiya va mavjud manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi xabarnomaning tasdiqlangan shakllarini vazirlikning rasmiy veb-sayti “Korrupsiyaga qarshi kurash” menyusi “Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha idoraviy hujjatlar” bo‘limiga joylashtirsin.

5. Devonxona (X.Raximboyeva) ushbu buyruqni bir kunlik muddatda vazirlikning markaziy apparati tarkibiy bo‘linmalari, hududiy boshqarmalari hamda tizim tashkilotlari va muassasalariga yetkazsin.

6. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Vazir

Toshkent sh.
2024-yil “24” dekabr,
409-son



X. Umarova

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2024-yil “24”-dekabrdagi 409-sonli buyrug‘iga
1-ilova

**Xodimning ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyasining
SHAKLI**

Men, _____ ushbu
(familiyasi, ismi, otasining ismi va uning lavozimi)

(yillik/ishga qabul qilinayotganda/boshqa ishga o‘tkazilayotganda)

to‘ldirayotgan deklaratsiyada o‘zim va menga aloqador shaxslarning ehtimoliy manfaatlar
to‘qnashuviga oid quyidagi ma‘lumotlarni oshkor qilaman:

1. Xodimga oid ma‘lumotlar

1.	Identifikatsiya ID-kartasi yoki biometrik pasport ma‘lumotlari (seriyasi, raqami, berilgan sanasi)	
2.	Jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (JSHSHIR) (mavjud bo‘lgan taqdirda)	

2. Aloqador shaxsga oid ma‘lumotlar*

Xodimning yaqin qarindoshiga oid ma‘lumotlar		
1.	Familiya, ismi, otasining ismi	
2.	Identifikatsiya ID-kartasi yoki biometrik pasport ma‘lumotlari (seriyasi, raqami, berilgan sanasi)	
3.	Jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (JSHSHIR) (mavjud bo‘lgan taqdirda)	

**Xodim qaysi yuridik shaxsning ustav fondi (ustav kapitali) aksiyalariga yoki ulushlariga
egalik qilsa yoxud unda boshqaruv organining rahbari yoki a‘zosi bo‘lsa, o‘sha yuridik
shaxsga oid ma‘lumotlar**

1.	Yuridik shaxsning nomi	
2.	Soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami (STIR)	

**Xodimning yaqin qarindoshi qaysi yuridik shaxsning ustav fondi (ustav kapitali)
aksiyalariga yoki ulushlariga egalik qilsa yoxud unda boshqaruv organining rahbari yoki
a‘zosi bo‘lsa, o‘sha yuridik shaxsga oid ma‘lumotlar**

1.	Yuridik shaxsning nomi	
2.	Soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami (STIR)	
3.	Agar sizning yaqin qarindoshlaringiz yoki aloqador shaxslar o‘z Tashkilotingizda ishlayotgan bo‘lsa, ularning lavozimini va tarkibiy bo‘linmasini ko‘rsating (<i>agar ular ishlama</i> , “yo‘q” deb yozing).	
4.	Agar siz, sizning yaqin qarindoshlaringiz yoki aloqador shaxslar tijorat tashkilotlarining ustav kapitalida ishtirop etsa (yakka tartibdagi tadbirkorlar bo‘lsa), sizning egallab turgan lavozimningiz manfaatlar to‘qnashuviga olib keladi deb o‘ylaysizmi? <i>(agar ishtirop etsa ularni ko‘rsating, ishtirop etmasa, “ishtirop etmaydi”, agar u manfaatlar to‘qnashuviga olib kelsa sababini ko‘rsating, olib kelmasa, “olib kelmaydi” deb ko‘rsating).</i>	

5.	Agar siz, sizning yaqin qarindoshlaringiz yoki aloqador shaxslar nodavlat notijorat tashkilotlarini boshqarishda qatnashsa, sizning egallab turgan lavozimингиз manfaatlар to‘qnashuviga olib keladi deb o‘ylaysizmi? <i>(agar ishtirok etsa ularni ko‘rsating, ishtirok etmasa, “ishtirok etmaydi”, agar u manfaatlар to‘qnashuviga olib kelsa sababini ko‘rsating, olib kelmasa, “olib kelmaydi” deb ko‘rsating).</i>	
6.	Sizning yaqin qarindoshlaringiz yoki aloqador shaxslar davlat idoralarida va tashkilotlarida ishlaydimi? Agar javob “ha” bo‘lsa qaysi tashkilotligini, lavozimini ko‘rsating.	
7.	Sizga Tashkilot xodimlari tomonidan uning etika va korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga oid ichki hujjatlarini buzish yoki ehtimoliy buzish bilan bog‘liq holatlar ma’lummi? <i>(Izoh: “Ha” yoki “Yo‘q” javoblarini tanlang; agar javobingiz “Ha” bo‘lsa, izohlar satrida bu haqida batafsil yozing)</i>	
8.	Siz boshqa biron bir tashkilotning xodimi yoki rahbarimisiz? Iltimos javob berishda ushbu tashkilotlardan biron bir haq olish yoki olmasligingizni qayd eting. <i>(Izoh: “Ha” yoki “Yo‘q” javobini belgilang; agar sizning javobingiz “Ha” bo‘lsa, “Sharhlar” maydonida barcha tegishli tashkilotlarning nomini va ulardagи lavozimlaringizni ko‘rsating.) Ha/yo‘q Izohlar:</i>	
9.	Siz biron bir tashkilotdan moliyaviy manfaatdormisiz (shu jumladan ustav kapitalida ishtirok etish, aksiyalar va obligatsiyalarga egalik qilish) yoki tashkilotning qarorlariga boshqa yo‘llar bilan ta’sir o‘tkaza olasizmi? <i>(Izoh: “Ha” yoki “Yo‘q” javobini belgilang; agar sizning javobingiz “Ha” bo‘lsa, “Izohlar” maydonida barcha tegishli tashkilotlarning nomi va ulardagи manfaatlariningizni ko‘rsatib o‘ting.) Ha / yo‘q Izohlar:</i>	
10.	O‘z Tashkilotingizning biznes sheriklari yoki kontragentlaridan qarz mablag‘larini, kafolatlar va kafilliklarni olganmisiz (moliyaviy muassasalar tomonidan hamma uchun ochiq (yoki korporativ) shartlarda berilgan kreditlar va kafolatlar bundan mustasno)? <i>(Izoh: Agar sizning javobingiz “Ha” bo‘lsa, “Sharhlar” maydoniga barcha tegishli tashkilotlarning nomini kiriting) Ha yo‘q Izohlar:</i>	
11.	Sizning yaqin qarindoshlaringiz vazirlikda yoki uning tizim tashkilotlarida ishlashadimi? <i>(Izoh: Agar sizning javobingiz “Ha” bo‘lsa, “Izohlar” maydonida qarindoshingizning ismini, uning aniq ish joyini ko‘rsating) Ha/ yo‘q Izohlar:</i>	
12.	Sizning yaqin qarindoshlaringiz vazirlikning biznes sheriklari yoki kontragentlarida ishlaydilarmi? <i>(Izoh: Agar sizning javobingiz “Ha” bo‘lsa, “Izohlar” maydonida ushbu qarindoshingizning ismini, tashkilot nomini, lavozimini ko‘rsating.) Ha / yo‘q Izohlar:</i>	
13.	O‘z Tashkilotingizning biznes sheriklari yoki kontragentlarida yaqin qarindoshlaringizning moliyaviy manfaatlari bormi yoki yaqin qarindoshingiz bunday tashkilotlarning qarorlariga boshqacha ta’sir ko‘rsata oladimi? <i>(Izoh: Agar javobingiz “Ha” bo‘lsa, “Sharhlar” maydonida ushbu qarindosh ning ismini, tashkilot nomini, uning lavozimini ko‘rsating.) Ha / yo‘q Izohlar:</i>	
14.	Sizning yaqin qarindoshlaringiz o‘z Tashkilotingizning biznes sheriklari yoki kontragentlaridan qarz mablag‘larini, kafolatlar va kafilliklarni olganmi (moliyaviy muassasalar tomonidan hamma uchun ochiq (yoki korporativ) shartlarda berilgan kreditlar va kafolatlar bundan mustasno)?	

	<i>(Izoh: Agar sizning javobingiz "Ha" bo'lsa, "Sharhlar" maydoniga barcha tegishli tashkilotlarning nomini kiritin) Ha/yo'q</i>	
15.	Sizning yaqin qarindoshingiz davlat amaldorimi, shu jumladan vazirlik faoliyati ustidan nazorat funksiyalarini amalga oshiradimi? <i>(Izoh: Agar sizning javobingiz "Ha" bo'lsa, "Sharhlar" maydonida bunday qarindoshning ismini, uning lavozimini va idora nomini ko'rsating.) Ha/yo'q Izohlar:</i>	
16.	Shaxsiy moliyaviy manfaatingiz mavjud bo'lgan yuridik yoki jismoniy shaxslar bilan o'z Tashkilotingiz nomidan bitim tuzishda ishtirok etganmisiz (qaror qabul qiluvchi, shartnomalar bajarilishiga javobgar, bajarilgan ishlarning qabul qilinishini tasdiqlovchi, to'lov hujjatlarini rasmiylashtiruvchi yoki tasdiqlovchi va boshqalar)? <i>(Izoh: Agar sizning javobingiz "Ha" bo'lsa, "Sharhlar" maydonida tafsilotlarni yozing). Ha/yo'q Izohlar:</i>	
17.	O'z Tashkilotingiz bilan boshqa kompaniya yoki tashkilot o'rtasidagi tijorat operatsiyalariga noqonuniy yoki axloqqa zid ta'sir sifatida talqin qilinishi mumkin bo'lgan pul yoki boshqa moddiy boyliklar, sovg'alar olganmisiz yoki xizmatlardan foydalanganmisiz (masalan, bunday kompaniya yoki tashkilotdan o'z Tashkilotingiz bilan bitim tuzishda yordam berilganligi uchun har qanday ko'rinishdagi naf) <i>(Izoh: Agar javobingiz "Ha" bo'lsa, "Sharhlar" maydonida tafsilotlarni yozing) Ha/yo'q Izohlar:</i>	
18.	o'z Tashkilotingiz bilan boshqa davlat organi, kompaniya yoki tashkilot o'rtasidagi munosabatlarga noqonuniy yoki axloqqa zid ta'sir sifatida talqin qilinishi mumkin bo'lgan to'lovlarini amalga oshirganmisiz, to'lovlariga ruxsat berganmisiz yoki bu to'g'risida murojaat qilganmisiz?	
19.	o'z Tashkilotingizdagi xizmat mavqeingizdan yoki o'z Tashkilotingizda ishslash jarayonida paydo bo'lgan biznes imkoniyatlardan shaxsiy manfaatlaringiz yoki yaqin qarindoshlaringiz manfaatlari yo'lida foydalanganmisiz? <i>(Izoh: Agar javobingiz "Ha" bo'lsa, "Sharhlar" maydonida tafsilotlarni yozing) Ha yoq Izohlar:</i>	
20.	Xizmat vazifalaringizni bajarish jarayonida Sizga ma'lum bo'lgan vazirlikka tegishli maxfiy ma'lumotlardan (shu jumladan rejalar, dasturlar, moliyaviy ma'lumotlar va boshqalar) shaxsiy manfaatlaringiz uchun foydalanganmisiz yoki ma'lumotlarni jismoniy shaxslarga, kompaniya yoki tashkilotlarga oshkor qilganmisiz? <i>(Izoh: Agar javobingiz "Ha" bo'lsa, "Sharhlar" maydonida tafsilotlarni yozing) Ha/yo'q Izohlar:</i>	
21.	O'z Tashkilotingizning Korrupsiyaga qarshi siyosati, odob-axloq qoidalari va manfaatlar to'qnashuvini hal etish Tartibi bilan belgilangan tamoyillar va talablarga rioya qildingizmi? <i>(Izoh: Agar javobingiz "Ha" bo'lsa, "Sharhlar" maydonida tafsilotlarni yozing) Ha yoq Izohlar:</i>	
22.	O'z Tashkilotingizning odob-axloq qoidalari va korrupsiyaga qarshi ichki me'yoriy hujjatlari talablari xodimlar tomonidan buzilganligi yoki taxminiy buzilishi holatlaridan xabaringiz bormi? <i>(Izoh: Agar javobingiz "Ha" bo'lsa, "Sharhlar" maydonida tafsilotlarni yozing) Ha /yo'q Izohlar:</i>	
23.	Siz va Tashkilotingiz o'rtasida manfaatlar to'qnashuvini vujudga keltirishi mumkin bo'lgan boshqa o'zaro ta'sirlar, munosabatlar, kelishuvlar, bitimlar yoki boshqa faktlar (yoki shubhalar) to'g'risida ma'lumotga egamisiz?	

	<i>(Izoh: Agar javobingiz "Ha" bo'lsa, "Sharhlar" maydonida tafsilotlarni yozing) Ha / yo'q Izohlar:</i>	
24.	Lozim deb topsangiz qo'shimcha ma'lumotlarni ko'rsating.	

* Xodim unga aloqador shaxslarning (xodimning yaqin qarindoshlari yoki xodimning yaqin qarindoshlari ustav fondi (ustav kapitali) aksiyalariga yoki ulushlariga egalik qiladigan yoxud boshqaruv organi rahbari yoki a'zosi bo'lgan yuridik shaxs) identifikatsiya ID-kartasi (biometrik pasporti), JSHSHIR, STIR bo'yicha ma'lumotlarni olish imkoniyatiga ega bo'lmasa, u tomonidan tegishli pozitsiyalarda "ma'lumotga ega emasman" deb izoh ko'rsatilishi mumkin.

3. Ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi ma'lumot

4. Ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyada ko'rsatilishi kerak bo'lgan ma'lumotlardan tashqari qo'shimcha ma'lumotlar (agar mavjud bo'lsa)

(xodim tomonidan manfaatlar to'qnashuvi vaziyati sifatida baholanadigan boshqa holatlar ko'rsatiladi)

Xodimning lavozimi

*Shaxsiy imzo yoki elektron
raqamli imzosi*

(Xodimning F.I.O.)

To'ldirilgan sana
20__ yil "___" ____

Ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi aniqlangan holatlar Manfaatlar to'qnashuvini hisobga olish reyestrida ro'yxatga olingan sanasi va raqami: 20__ yil "___" "____"; reyestr raqami ____-son.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2024-yil “24”-dekabrdagi 409-sonli buyrug‘iga
2-ilova

**Aloqador shaxslarning ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiya
SHAKLI**

Men _____, ushbu deklaratsiyada
aloqador shaxs
(familiyasi, ismi va sharifi)

sifatida o‘zim va xodim (ishga kirayotgan nomzodning) ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuviga oid
quyidagi ma’lumotlarni ma’lum qilaman:

1.	Xodimga aloqador jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (JSHSHIR)	
3.	Xodimga aloqador yuridik shaxsning nomi	
4.	Xodimga aloqador soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami (STIR)	
5.	Xodimning F.I.O. va lavozimi	
6.	Jismoniy shaxsning xodim bilan qarindoshligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar (ota-onalar, aka-ukalar, opa-singillar, o‘g‘illar, qizlar, er-xotinlar, shuningdek er-xotinlarning ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari)	
7.	Yuridik shaxsning xodim bilan aloqadorligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar (xodim va uning yaqin qarindoshlari qaysi yuridik shaxsning ustav fondi (ustav kapitali) aksiyalariga yoki ulushlariga egalik qilsa yoxud unda boshqaruv organining rahbari yoki a’zosi bo‘lsa, o‘sma yuridik shaxs)	

Aloqador shaxs

*Shaxsiy imzo yoki elektron
raqamli imzosi*

(F.I.O.)

To‘ldirilgan sana

20___ yil “___” ____

Ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi aniqlangan holatlар Manfaatlar to‘qnashuvini hisobga
olish reyestrida ro‘yxatga olingan sanasi va raqami: 20___ yil “___” “_____”; reyestr
raqami ____-son.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2024-yil “24”-dekabrdagi 409-sonli buyrug‘iga
3-ilova

Manfaatlar to‘qnashuvini hisobga olish reyestrining SHAKLI

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2024-yil “24”-dekabrdagi 409-sonli buyrug‘iga
4-ilova

ga
(bevosita rahbarning lavozimi va F.I.O.)

dan
(xodimning lavozimi va F.I.O.)

**Mavjud manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi xabarnoma
SHAKLI**

Men ushbu xabarnomada o‘zim va menga aloqador shaxslarning mavjud manfaatlar to‘qnashuviga oid quyidagi ma‘lumotlar to‘g‘risida xabar beraman:

1. Xodimga oid ma‘lumotlar

1.	Identifikatsiya ID-kartasi yoki biometrik pasport ma‘lumotlari (seriyasi, raqami, berilgan sanasi)
2.	Jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (JSHSHIR) (mavjud bo‘lgan taqdirda)

2. Aloqador shaxslarga oid ma‘lumotlar*

Xodimning yaqin qarindoshiga oid ma‘lumotlar	
1.	Familiya, ismi, otasining ismi
2.	Identifikatsiya ID-kartasi yoki biometrik pasport ma‘lumotlari (seriyasi, raqami, berilgan sanasi)
3.	Jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (JSHSHIR) (mavjud bo‘lgan taqdirda)

Xodim qaysi yuridik shaxsning ustav fondi (ustav kapitali) aksiyalariga yoki ulushlariga egalik qilsa yoxud unda boshqaruv organining rahbari yoki a‘zosi bo‘lsa, o‘sha yuridik shaxsga oid ma‘lumotlar

1.	Yuridik shaxsning nomi
2.	Soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami (STIR)

Xodimning yaqin qarindoshi qaysi yuridik shaxsning ustav fondi (ustav kapitali) aksiyalariga yoki ulushlariga egalik qilsa yoxud unda boshqaruv organining rahbari yoki a‘zosi bo‘lsa, o‘sha yuridik shaxsga oid ma‘lumotlar

1.	Yuridik shaxsning nomi
2.	Soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami (STIR)

* Xodim unga aloqador shaxslarning (xodimning yaqin qarindoshlari yoki xodimning yaqin qarindoshlari ustav fondi (ustav kapitali) aksiyalariga yoki ulushlariga egalik qiladigan yoxud boshqaruv organi rahbari yoki a‘zosi bo‘lgan yuridik shaxs) identifikatsiya ID-kartasi (biometrik pasporti), JSHSHIR, STIR bo‘yicha ma‘lumotlarni olish imkoniyatiga ega bo‘lmasa, u tomonidan tegishli pozitsiyalarda “ma‘lumotga ega emasman” deb izoh ko‘rsatilishi mumkin.

3. Mavjud manfaatlar to‘qnashuvi bo‘yicha ma‘lumot

1. Mavjud manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida ma‘lumot

Xodimning lavozimi

*Shaxsiy imzo yoki elektron
raqamli imzosi*

(Xodimning F.I.O.)

To‘ldirilgan sana

20__ yil “___” _____

Xodimning bevosita rahbari

Mavjud manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish bo‘yicha ko‘rilgan chora:

Xodimning bevosita
rahbarining lavozimi

*Shaxsiy imzo yoki elektron
raqamli imzosi*

(Xodimning F.I.O.)

To‘ldirilgan sana

20__ yil “___” _____

Mavjud manfaatlar to‘qnashuvi aniqlangan holatlari Manfaatlar to‘qnashuvini hisobga
olish reyestrida ro‘yxatga olingan sanasi va tartib raqami: 20__ yil “___”
“___”; _____ -son.